

## Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii) (yozma test)

1-savol

Quyidagilarning qaysi biri Yaponiyadagi qurilish ishlarini taqsimlash tizimida ixtisoslashgan pudratchini tavsiflaydi?

1. Qurilish ishlari qurilish pudratchisiga buyuriladi.
2. Loyiha hujjatlari mijozning talablarini qondirish maqsadida tayyorlanadi.
3. Butun yirik qurilish obyektini nazorat qiladi va rahbarlikni oladi.
4. Har bir qurilish loyihasi uchun alohida mutaxassis, bir nechta ishchilar esa ishboshi rahbarligida ishlarni bajaradi.

Javob: 4

## Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii) (yozma test)

### 2-savol

Malaka darajasini belgilash tizimi mavjud bo'lib, unda birinchi, ikkinchi va uchinchi toifadagi ko'nikmalar darajasi davlat tomonidan sinovdan o'tkaziladi va tasdiqlanadi. Malaka tasdiqlash imtihonidan o'tgan shaxs qanday unvonni ishlatishi mumkin?

1. Malakali ishchi
2. Professional muhandis
3. Huquqshunos
4. Sud kotibi

Javob: 1

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

3-savol

Quyidagilarning qaysi biri ish joyida xodimlarning xavfsizligi va salomatligini ta'minlash yoki qulay mehnat sharoitini yaratish uchun maqbul hisoblanmaydi?

1. Xatarlarni baholash
2. Kuch bilan ta'qib qilish
3. KY tadbirlari
4. Stress tekshiruvi

Javob: 2

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

4-savol

Qurilish biznesi to'g'risidagi qonunga muvofiq, ishlarning to'g'ri bajarilishini ta'minlash uchun majburiy tayinlanishi kerak bo'lgan muhandisning lavozimi nima deb nomlanadi?

1. Boshqaruvchi muhandis/Bosh muhandis
2. Qurilish maydonidagi vakil
3. Xavfsizlik va salomatlik nazoratchisi
4. Ishboshi

Javob: 1

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

5-savol

Aviatsiya to'g'risidagi qonunga muvofiq, quyidagilarning qaysi biri ro'yxatdan o'tkazilishi shart?

1. Transiver qurilma
2. Optik tolali aloqa
3. Uchuvchisiz havo kemalari (dronlar)
4. Yer osti turargohining jihozlari

Javob: 3

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

6-savol

Dengiz fuqarolik muhandisligi sohasida suv ostida ishlay oladigan mutaxassis nima deb nomlanadi?

1. Gazli payvandchi
2. Portlatish operatori
3. Bosimni sozlash texnigi
4. G'avvos

Javob: 4

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

7-savol

Qoziqoyoq qoqishda fabrikada ishlangan qoziqoyoqlarni olib kelib o'rnatish usuli nima deb nomlanadi?

1. Shurf
2. Sinov qazish
3. Oldindan tayyorlangan qoziqoyoq
4. Quyma beton qoziqoyoq

Javob: 3

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

8-savol

Binolarda tebranishni nazorat qilish uchun energiyani yutuvchi amortizatorlar kabi mexanizmlar o'rnatiladigan qurilish ishlari qaysi atama bilan ataladi?

1. Tebranish nazorati ishlari
2. Seysmik bardoshlilik ishlari
3. Seysmik izolyatsiyalash ishlari
4. Mustahkamlash ishlari

Javob: 1



Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

9-savol

Javobning ( ) qismini to'g'ri to'ldiradigan so'zni tanlang.

Elektr aloqa qurilishida tarmoq asosan telefon va ( ) kabi ma'lumotlarni uzatish va ulardan foydalanish uchun yaratiladi.

1. Nimstansiya uskunasi
2. Elektr rozetkasi
3. Batareya quvvatlagich
4. Internet

Javob: 4

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

10-savol

Qulay muhit yaratish uchun harorat va namlikni moslash hamda havoni tozalash uskunalarini o'rnatishni o'z ichiga olgan qurilish ishini tanlang.

1. Suv ta'minoti, drenaj va sanitariya inshootlarini o'rnatish ishlari
2. Sovitgich va konditsioner o'rnatish ishlari
3. Issiqdan/Sovuqdan izolyatsiyalash ishlari
4. Yong'inga qarshi uskunalarni o'rnatish ishlari

Javob: 2

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

11-savol

Yer qazish va yer osti yoki poydevor ishlari tugagandan keyin inshoot va uning atrofida hosil bo'lgan qo'shimcha bo'shliqni tuproq bilan to'ldirish jarayoni nima deb nomlanadi?

1. To'ldirish ishlari
2. Buldozer ishlari
3. Qirg'oqni mustahkamlash ishlari
4. Qazish ishlari

Javob: 1

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

12-savol

Qaysi turdagi qurilish ishlari chuqurlashtirish ishlari deb yuritiladi?

1. Dengizda tuproq uyumlash va yangi quruqlik hosil qilish bo'yicha qurilish ishlari.
2. Dengizlar, daryolar va boshqa suv havzalar tubini cho'kindilardan tozalashga qaratilgan qurilish-texnik ishlar.
3. Portda kemalarning yuk ortish va tushirish uchun to'xtashi mumkin bo'lgan inshootlarni qurish ishlari.
4. Portga to'lqinlar kirishining oldini oladigan inshootlarni barpo qilish ishlari.

Javob: 2

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

13-savol

Armaturalarni birlashtirish uchun ularni bog'lovchi qismni qizdirib, o'q yo'nalishida bosim bilan ulash usuli nima deb ataladi?

1. Gaz bosimi bilan payvandlangan chok
2. Payvandlangan chok
3. Mexanik ulash
4. Armaturani ustma-ust ulash

Javob: 1

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

14-savol

Elektr montaj ishlari qatoriga kirmaydigan variantni tanlang.

1. Taqsimlash qurilmalarini o'rnatish
2. Toki urishi va elektr sirqishining oldini olish maqsadida yerga ulash ishlari
3. Optik tolali kabel ulash ishlari
4. Isitish va sovitish uskunalari uchun elektr ta'minoti qurilmasi

Javob: 3

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

15-savol

Suv magistralidan taqsimlovchi quvurlar orqali hojatxona, oshxona va boshqa joylarga suv yetkazib berish uchun nasoslar va suv baklari o'rnatish hamda quvur yotqizish ishlari nima deb ataladi?

1. Suv ta'minoti inshootlarini o'rnatish
2. Gaz uskunalari ishlari
3. Issiqdan/Sovuqdan izolyatsiyalash ishlari
4. Telekommunikatsiya qurilish ishlari

Javob: 1

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

16-savol

Sanoat xavfsizligi va salomatlik to'g'risidagi qonunga muvofiq maxsus ta'lim talab qilinadigan vazifalarni tanlang.

1. Qolip va tirgak qurilmalar montaji
2. Yonuvchan gazlar va kislorod yordamida metall payvandlash
3. Beton maydalagich yordamida parchalash
4. Yuk ko'tarish quvvati 1 tonnadan kam yuk ko'targich yordamida yuklarni osish

Javob: 4



Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

17-savol

O'zingiz va boshqalar uchun xavfsiz hamda jarohatsiz ish kunini tilash hissini ifodalaydigan salomlashuvni tanlang.

1. "Xavfsiz qoling"
2. "Xayrli tong"
3. "Kechirasiz"
4. "Diqqat"

Javob: 1

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

18-savol

Qiyalik, notekis va pastqam yerlarga tuproq to'kib, tekis yuza hosil qilish jarayonini tanlang.

1. Kesish
2. Qirg'oqni mustahkamlash
3. To'ldiruvchi asos qatlam
4. Tayanch devorlar

Javob: 2

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

19-savol

Armatura ishlarida armaturani joylashtirib yig'ish jarayoni qanday nomlanadi?

1. Zichlash
2. Aralashtirish
3. Armatura joylashtirilish
4. Joylashtirish

Javob: 3

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

20-savol

Elektr zanjirida elektr tokining bir qismdan boshqa qismga o'tishini to'xtatib qo'yish qanday ataladi?

1. Ko'mish
2. Simlarni ulash
3. Berkitish
4. Izolyatsiyalash

Javob: 4

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

21-savol

Qurilish maydoni uchun tegishli kiyim-kechak va xulq-atvorni tanlang.

1. Uzun yenglar va uzun shim
2. Qaytarilgan yenglar
3. Qo'llarini cho'ntaklariga solib yurish
4. Jaket tugmalarini yechib, ochiq qoldirish

Javob: 1

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

22-savol

Quyidagilarning qaysi biri ishboshiga mos keladi?

1. Maqsadlarga erishish uchun ish jarayonida xodimlarga tegishli yo'l-yo'riqlar berib borish.
2. Ishchilar maoshini hisoblash.
3. O'rta va yirik obyektlarda obyekt boshqaruvchisi sifatida obyektни nazorat qilish.
4. Loyiha chizmalarini tayyorlash.

Javob: 1

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

23-savol

Qurilish maydonchasida xavfsizlikni boshqarish uchun zarur eng mos mahoratni tanlang.

1. Yuqori sifatli ish bajarish mahorati
2. Xarajatlardan xabardor bo'lish
3. Xatarli va zaharli muhitni bilish mahorati
4. Loyiha kechikishlariga moslashish va ularni bartaraf qilish mahorati

Javob: 3

## Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii) (yozma test)

### 24-savol

“80% tayyorgarlik, 20% ish” iborasining to'g'ri ma'nosini tanlang.

1. Tayyorgarlikni 8 daqiqada yakunlash
2. Ishga kirishishdan oldin tayyorgarlik muhim ahamiyatga egaligi
3. Ishga tayyorgarlik shart emasligi
4. Ish sifati tayyorgarlik bosqichiga bog'liq emasligi

Javob: 2



Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

25-savol

Quyidagilarning qaysi biri qurilish loyihasi xarajatlarida “mehnat sarfi”ni ifodalaydi?

1. Qurilish ishlarini bajarayotgan ishchilarning mehnat sarfi
2. Qurilish uchun zarur ashyolarni xarid qilish xarajatlari
3. Ishning bir qismini boshqa pudratchilarga topshirish xarajatlari
4. Ish transport vositalarini xarid qilish xarajatlari

Javob: 1

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

26-savol

Qurilishni tugatish sanasidan boshlab jarayonlarni teskari tartibda kuzatib, zarur kunlar sonini aniqlaydigan usul nima deb nomlanadi?

1. Oldinga o'tkazish usuli
2. Teskari hisoblash usuli
3. Kamaytirish usuli
4. Saqlanish usuli

Javob: 2

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

27-savol

Sifat nazorati uchun mos variantni tanlang.

1. Buyurtmachi yoki loyiha muallifi tomonidan loyiha hujjatlarining tavsifini olish.
2. Qurilish tugagandan keyin ko'rinmaydigan qismlarning suratlarini olishga hojat yo'q.
3. Ishchilarga maslahat berib o'tirmang – ular o'zlari kuzatib o'rganishsin.
4. Nuqson kelib chiqsa, kerakli joyni tekshirmasdan, tajribaga asoslanib xulosa chiqaring.

Javob: 1

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

28-savol

Obyektda sanoat xavfsizligi va salomatlik muhofazasi boshqaruvini nazorat qiluvchi hamda xavfsizlik va salomatlik muhofazasi bo'yicha menejerlarni boshqaradigan shaxsning lavozimi nima deb ataladi?

1. Loyihalovchi
2. Ishboshi
3. Obyekt boshlig'i
4. Mehnat xavfsizligi va salomatlik muhofazasi menejeri

Javob: 4

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

29-savol

Aniq va oson tushuniladigan ish tartibi qo'llanmasini tuzish uchun mos kelmaydigan bandni tanlang.

1. Oddiy vazifalarni o'tkazib yuborish.
2. Qisqa va lo'nda yozish.
3. Ehtiyot choralari sifatida kutilayotgan xavf-xatarlarni ko'rsatish.
4. Ishni bajarishning zarurligi sabablarini tushuntirib bering.

Javob: 1

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

30-savol

Quyidagilarning qaysi biri xavfni baholashni joriy etishning kutilgan natijasi emas?

1. Bu xavf-xatarlar haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi.
2. U xavfsizlik choralarini oqilona ustuvorlashtirish imkonini beradi.
3. Ishchilar xavfsizlikka chalg'imasdan, faqat o'z vazifalariga diqqatlarini qaratishlari mumkin.
4. U butun ish joyida xavfsizlikka bo'lgan e'tiborni oshiradi.

Javob: 3

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

31-savol

Xavfni kamaytirish chora-tadbirlarida ichki o'lchov sifatida qo'llaniladigan variantni tanlang.

1. Zararli materiallarni xavfsiz materiallarga aylantirish.
2. Himoya qo'lqoplaridan foydalanish.
3. Ish qo'llanmalarini ishlab chiqish.
4. Himoya panjaralarini o'rnatish.

Javob: 1

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

32-savol

Inson xatosining 12 xil sababiga kiritilmagan variantni tanlang.

1. Charchash
2. Osonlashtirish xatti-harakatlari
3. Ko'pchilik tomonidan tasdiqlanishi
4. Muloqot yetishmasligi

Javob: 3



Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

33-savol

Standart tavsifnomada belgilangan tarkibga quyidagilarning qaysi biri kirmaydi?

1. Materiallar
2. Uskunalar
3. Qurilish usullari
4. Mehnat birligining narxi

Javob: 4

Namunaviy savollar – Qurilish sohasida ma'lum ko'nikmalarni baholash imtihoni (ii)  
(yozma test)

34-savol

Qurilish sanoatining tegishli rolini tanlash.

1. Zarar yetgan obyektlarni tiklash
2. Yuqori qavatli uy-joylarni sotish
3. Suv ta'minoti va oqova suv tizimlarini ta'minlash
4. Tashish xizmatlaridan foydalanish

Javob: 1